**Annotatsiya:** Mazkur maqolada yoshlarning harbiy xizmatga bo'lgan munosabatini shakllantirishning psixologik, pedagogik va ijtimoiy omillari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi, fuqarolik mas'uliyati, milliy qadriyatlarga sodiqlik, psixologik tayyorgarlik va motivatsiyaning yoshlarning harbiy xizmatga nisbatan ijobiy munosabatini rivojlantirishdagi o'rni yoritilgan. Shuningdek, oilaviy muhit, ta'lim muassasalari, ommaviy axborot vositalari va harbiy ta'lim tizimining mazkur jarayonga ta'siri tahlil qilinib, yoshlarda Vatanga sadoqat, burch hissi, mas'uliyat va psixologik barqarorlikni rivojlantirishning samarali mexanizmlari asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari chaqiriqqacha harbiy ta'lim tizimida zamonaviy psixologik-pedagogik texnologiyalarni qo'llash yoshlarning harbiy xizmatga tayyorgarligini va motivatsiyasini oshirishga xizmat qilishini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** harbiy xizmat, yoshlar, harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi, motivatsiya, psixologik tayyorgarlik, fuqarolik mas'uliyati, Vatanga sadoqat, harbiy motiv, psixologik barqarorlik, qadriyatlar, ijtimoiylashuv.

**Abstract:** This article examines the psychological, pedagogical, and social characteristics of shaping young people's attitudes toward military service. It analyzes the role of military-patriotic education, civic responsibility, psychological preparedness, motivation, and national values in fostering positive attitudes toward military service. Particular attention is paid to the influence of family, educational institutions, mass media, and the military education system on the development of patriotism, responsibility, and psychological resilience among young people. The study substantiates the importance of applying modern psychological and pedagogical technologies in pre-conscription training to enhance young people's motivation and readiness for military service.

**Key words:** military service, youth, military-patriotic education, motivation, psychological preparedness, civic responsibility, patriotism, military motivation, psychological resilience, values, socialization.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются психологические, педагогические и социальные особенности формирования отношения молодежи к военной службе. Проанализирована роль военно-патриотического воспитания, гражданской ответственности, психологической подготовки, мотивации и национальных ценностей в формировании позитивного отношения молодежи к военной службе. Особое внимание уделено влиянию семьи, образовательных учреждений, средств массовой информации и системы военного образования на развитие чувства патриотизма, ответственности и психологической устойчивости молодежи. Обоснована необходимость применения современных психолого-педагогических технологий в системе допризывной подготовки для повышения мотивации и готовности молодежи к военной службе.

**Ключевые слова:** военная служба, молодежь, военно-патриотическое воспитание, мотивация, психологическая подготовка, гражданская ответственность, патриотизм, военная мотивация, психологическая устойчивость, ценности, социализация.

## KIRISH

Bugungi globallashuv, geosiyosiy raqobat va axborot makonining keskin rivojlanishi sharoitida davlat xavfsizligini ta'minlash har bir mamlakatning ustuvor strategik vazifalaridan biri hisoblanadi. Mamlakat mudofaa salohiyatini mustahkamlashda zamonaviy qurol-aslaha, harbiy texnika va tashkiliy imkoniyatlar bilan bir qatorda inson omili, ayniqsa, yoshlarning harbiy xizmatga bo'lgan munosabati va psixologik tayyorgarligi alohida ahamiyat kasb etadi. Harbiy xizmatni nafaqat konstitutsiyaviy burch, balki Vatanga sadoqat, fuqarolik mas'uliyati va milliy g'urning ifodasi sifatida anglash yosh avlodni har tomonlama barkamol etib tarbiyalashning muhim yo'nalishlaridan biridir.



Yangi O'zbekistonda yoshlar siyosatini takomillashtirish, harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini kuchaytirish hamda chaqiriqqacha harbiy ta'lim tizimini zamonaviy talablarga asosida rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamlı islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu islohotlarning asosiy maqsadi yoshlarda Vatanga muhabbat, yuksak fuqarolik pozitsiyasi, konstitutsiyaviy burchga sadoqat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, harbiy xizmatga nisbatan ongli va mas'uliyatli munosabatni shakllantirishdan iborat.

Yoshlarning harbiy xizmatga bo'lgan munosabati murakkab psixologik va ijtimoiy hodisa bo'lib, unga shaxsning motivatsiyasi, qadriyatlar tizimi, oilaviy tarbiya, tengdoshlar ta'siri, ta'lim muhiti, ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar hamda jamiyatdagi harbiy kasbning nufuzi kabi ko'plab omillar ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, raqamli axborot makonida turli mazmundagi ma'lumotlarning tez tarqalishi yoshlarning harbiy xizmat haqidagi tasavvurlari va qarashlarini shakllantirishda muhim rol o'ynamoqda. Shu sababli yoshlarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, ishonchli axborotni ajrata olish ko'nikmalarini shakllantirish ham harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda <sup>[1]</sup>.

Psixologik nuqtai nazardan harbiy xizmatga ijobiy munosabatning shakllanishi shaxsning ichki motivatsiyasi, ijtimoiy identifikatsiyasi, vatanparvarlik tuyg'usi, psixologik barqarorligi, stressga chidamliligi va mas'uliyat hissi bilan uzviy bog'liqdir. Harbiy faoliyat yuqori darajadagi intizom, qat'iyat, jamoada ishlash, tezkor qaror qabul qilish va murakkab vaziyatlarda emotsional barqarorlikni saqlashni talab qiladi. Shuning uchun yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlash jarayonida faqat jismoniy tayyorgarlik emas, balki ularning psixologik tayyorgarligini ham izchil rivojlantirish zarur <sup>[2]</sup>.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, harbiy xizmatga bo'lgan ijobiy munosabatning shakllanishida motivatsion, kognitiv, emotsional va xulq-atvor komponentlari o'zaro uyg'un holda namoyon bo'ladi. Motivatsion komponent harbiy xizmatning shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatini anglashni ta'minlasa, kognitiv komponent harbiy kasb, milliy xavfsizlik va mudofaa tizimi haqidagi bilimlarni o'z ichiga oladi. Emotsional komponent Vatanga muhabbat, faxr va mas'uliyat tuyg'ularini rivojlantiradi, xulq-atvor komponenti esa ushbu qadriyatlarning amaliy faoliyatda namoyon bo'lishini ifodalaydi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi yoshlarning harbiy xizmatga bo'lgan munosabatini shakllantirishning o'ziga xos psixologik xususiyatlarini aniqlash, unga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillarni ilmiy asoslash hamda harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi zamonaviy psixologik-pedagogik mexanizmlarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda yoshlarning harbiy xizmatga bo'lgan munosabati motivatsion, emotsional, kognitiv va ijtimoiy komponentlarning integratsiyasi sifatida tahlil qilinadi. Shuningdek, oila, ta'lim muassasalari, chaqiriqqacha harbiy ta'lim tizimi, mahalla va ommaviy kommunikatsiya vositalarining o'zaro hamkorligi asosida harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining kompleks modeli taklif etiladi. Ushbu yondashuv yoshlarning harbiy xizmatga ongli munosabatini rivojlantirish, ularning psixologik tayyorgarligini mustahkamlash hamda Vatan himoyasiga daxldorlik hissini kuchaytirishga xizmat qiladi <sup>[3]</sup>.

Mazkur tadqiqot natijalari chaqiriqqacha harbiy ta'lim tizimini takomillashtirish, harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi dasturlarini boyitish, ta'lim muassasalari faoliyatiga zamonaviy psixologik yondashuvlarni joriy etish hamda yoshlarni harbiy xizmatga sifatli tayyorlash bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlash va ularda harbiy xizmatga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish masalasi harbiy psixologiya, ijtimoiy psixologiya, pedagogika hamda yoshlar psixologiyasi yo'nalishlarida keng o'rganilayotgan ilmiy muammolardan biridir. Zamonaviy tadqiqotlarda ushbu jarayon faqat harbiy tayyorgarlik bilan emas, balki shaxsning motivatsiyasi, qadriyatlari, fuqarolik pozitsiyasi, vatanparvarlik tuyg'usi, psixologik barqarorligi va ijtimoiy identifikatsiyasi bilan uzviy bog'liq murakkab psixologik hodisa sifatida talqin qilinmoqda.

Harbiy psixologiyaning nazariy asoslari B.M. Teplov, K.K. Platonov, A.G. Maklakov, A.A. Bodalev, V.N. Drujinin va boshqa olimlarning ilmiy tadqiqotlarida yoritilgan. Ularning fikricha, harbiy faoliyat shaxsdan yuqori darajadagi intizom, mas'uliyat, irodaviy sifatlar, emotsional barqarorlik hamda murakkab vaziyatlarda tezkor va oqilona qaror qabul qilish qobiliyatini talab etadi. Shu sababli harbiy xizmatga psixologik tayyorgarlik shaxsning kasbiy shakllanishining ajralmas qismi hisoblanadi.

Harbiy motivatsiya masalalari A. Maslow, D. McClelland, E. Deci va R. Ryan tomonidan ishlab chiqilgan motivatsiya nazariyalari nuqtai nazaridan ham izohlanadi. Mazkur nazariyalarga ko'ra, insonning muayyan faoliyatga bo'lgan munosabati uning ichki ehtiyojlari, qadriyatlari va ijtimoiy motivlari bilan belgilanadi. Harbiy xizmatga nisbatan ijobiy munosabat shakllanishida ichki motivatsiya, Vatan oldidagi burchni anglash, fuqarolik mas'uliyati va jamiyat manfaatlariga xizmat qilish istagi muhim omillar hisoblanadi.

Vatanparvarlik tarbiyasining psixologik asoslari L.S. Vigotskiy, A.N. Leontev va S.L. Rubinshteynning shaxs rivojlanishi haqidagi nazariyalari bilan chambarchas bog'liq. Ushbu olimlar shaxsning qadriyatlari va

ijtimoiy munosabatlari faoliyat jarayonida shakllanishini ta'kidlaydilar. Mazkur yondashuvga ko'ra, yoshlarning harbiy xizmatga bo'lgan munosabatini rivojlantirishda nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy mashg'ulotlar, harbiy-vatanparvarlik tadbirlari, jamoaviy faoliyat va ijtimoiy tajriba muhim ahamiyat kasb etadi.

Mahalliy psixolog olimlar E. G'oziyev, V. Karimova, G'.B. Shoumarov, B.R. Qodirov va R.I. Sunnatova ilmiy ishlarida shaxs kamoloti, fuqarolik mas'uliyati, milliy o'zlikni anglash, ijtimoiylashuv va vatanparvarlik tarbiyasining psixologik jihatlari keng yoritilgan. Ularning ilmiy qarashlarida yoshlarning ijtimoiy faolligi, ma'naviy qadriyatlariga sodiqligi va Vatanga daxldorlik hissini shakllantirishda oila, ta'lim muassasalari va jamiyatning uzviy hamkorligi alohida ta'kidlanadi [7].

So'nggi yillarda harbiy psixologiya sohasida psixologik rezilientlik (resilience), stressga chidamlilik va adaptiv xulq-atvor masalalari alohida ilmiy yo'nalish sifatida rivojlanmoqda. M. Seligman, G. Bonanno, S. Maddi va boshqa tadqiqotchilar psixologik rezilientlikni murakkab va xavfli faoliyat turlarida muvaffaqiyatni ta'minlovchi muhim omil sifatida baholaydilar. Ularning tadqiqotlari harbiy faoliyatda emotsional barqarorlik, optimizm, o'zini boshqarish va moslashuvchanlikni rivojlantirish zarurligini ilmiy asoslaydi.

Harbiy xizmatga bo'lgan munosabatning shakllanishida ijtimoiy muhitning o'rni ham katta. Oila yoshning dastlabki qadriyatlari va fuqarolik pozitsiyasini shakllantiruvchi asosiy ijtimoiy institut hisoblanadi. Ota-onaning harbiy kasbga bo'lgan munosabati, oiladagi tarbiya uslubi, milliy va ma'naviy qadriyatlarining singdirilishi yoshlarning harbiy xizmatga oid tasavvurlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, umumta'lim maktablari, akademik litseylar, kasb-hunar ta'limi muassasalari va chaqiriqqacha harbiy ta'lim tizimi ushbu jarayonning institutsional asosini tashkil etadi [9].

Raqamli texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlarning jadal rivojlanishi yoshlarning dunyoqarashi hamda kasbiy tanloviga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Bir tomondan, ular harbiy kasbning nufuzi, zamonaviy Qurolli Kuchlar faoliyati va harbiy ta'lim imkoniyatlari haqida tezkor axborot olish imkonini beradi. Ikkinchi tomondan, noto'g'ri yoki manipulyativ axborotlarning tarqalishi yoshlarning harbiy xizmat haqidagi qarashlariga salbiy ta'sir qilishi mumkin. Shu sababli zamonaviy harbiy-vatanparvarlik tarbiyasida media savodxonlik, tanqidiy fikrlash va axborot madaniyatini rivojlantirish ham muhim yo'nalishlardan biri sifatida qaralmoqda [6].

Tahlil qilingan ilmiy manbalar shuni ko'rsatadiki, yoshlarning harbiy xizmatga bo'lgan munosabati motivatsion, emotsional, kognitiv va xulq-atvor komponentlarining o'zaro integratsiyasi natijasida shakllanadi. Biroq mavjud ilmiy tadqiqotlarning aksariyatida ushbu komponentlar alohida o'rganilgan bo'lib, ularning kompleks psixologik modeli, ayniqsa, chaqiriqqacha harbiy ta'lim tizimi sharoitida rivojlantirish mexanizmlari yetarli darajada tadqiq etilmagan [5].

Shuningdek, mahalliy ilmiy adabiyotlarda yoshlarning harbiy xizmatga bo'lgan munosabatini shakllantirishda psixologik motivatsiya, fuqarolik identifikatsiyasi, rezilientlik, stressga chidamlilik va kommunikativ kompetentlikning o'zaro bog'liqligini statistik usullar asosida kompleks tahlil qiluvchi tadqiqotlar nisbatan kam uchraydi. Bu esa mazkur yo'nalishda zamonaviy psixodiagnostik metodlar va empirik tadqiqotlar asosida yangi ilmiy yondashuvlarni ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltiradi [12].

Umuman olganda, ilmiy adabiyotlar tahlili yoshlarning harbiy xizmatga bo'lgan ijobiy munosabatini shakllantirish Vatani mudofaasini ta'minlash, fuqarolik mas'uliyatini rivojlantirish va harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi samaradorligini oshirishning muhim psixologik omillaridan biri ekanligini ko'rsatadi. Shu bois ushbu muammoni kompleks psixologik-pedagogik yondashuv asosida tadqiq etish ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb hisoblanadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot yoshlarning harbiy xizmatga bo'lgan munosabatini shakllantirishning o'ziga xos psixologik xususiyatlarini aniqlash, ushbu jarayonga ta'sir etuvchi motivatsion, kognitiv, emotsional va ijtimoiy omillarni empirik jihatdan baholash hamda ularning o'zaro bog'liqligini statistik tahlil qilish maqsadida tashkil etildi. Tadqiqot metodologiyasi shaxs faoliyati nazariyasi, motivatsion yondashuv, harbiy psixologiya tamoyillari hamda zamonaviy psixodiagnostik usullar asosida ishlab chiqildi.

Tadqiqotning nazariy-metodologik asosini L.S. Vigotskiyning madaniy-tarixiy rivojlanish nazariyasi, A.N. Leontevning faoliyat nazariyasi, S.L. Rubinshteynning shaxs va faoliyat konsepsiyasi, A. Maslowning ehtiyojlar nazariyasi, D. McClellandning motivatsiya konsepsiyasi hamda E. Deci va R. Ryanning o'zini o'zi belgilash (Self-Determination Theory) nazariyasi tashkil etdi.

Shuningdek, harbiy psixologiya sohasida A.G. Maklakov, B.M. Teplov, K.K. Platonov, mahalliy olimlardan E. G'oziyev, V. Karimova, G'.B. Shoumarov va B.R. Qodirovning ilmiy ishlari metodologik asos sifatida tahlil qilindi.



## TAHLIL VA NATIJALAR

Empirik tadqiqot Buxoro viloyatidagi umumta'lim maktablarining chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan hamda harbiy ta'limga qiziqish bildirgan 200 nafar yosh ishtirokida amalga oshirildi. Respondentlar yosh xususiyatlari va harbiy tayyorgarlik darajasiga ko'ra ikki guruhga ajratildi:

- 1-guruh – harbiy tayyorgarlikning boshlang'ich bosqichida bo'lgan 100 nafar respondent;
- 2-guruh – chaqiriqqacha harbiy tayyorgarlik mashg'ulotlarini muntazam o'tagan 100 nafar respondent.

Mazkur guruhlash harbiy tayyorgarlik jarayonining yoshlarning motivatsiyasi va harbiy xizmatga bo'lgan munosabatiga ta'sirini qiyosiy tahlil qilish imkonini berdi.

Tadqiqot davomida quyidagi psixodiagnostik metodikalardan foydalanildi:

- A. Mehrabianning muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi metodikasi;
- D. McClelland motivatsion yo'nalishlarini baholash testi;
- S. Maddining Hardiness Survey (psixologik chidamlilik) metodikasi;
- M. Rokichning qadriyatlar yo'nalishini aniqlash metodikasi;
- muallif tomonidan ishlab chiqilgan "Yoshlarning harbiy xizmatga bo'lgan munosabati" so'rovnomasi.

Olingan empirik ma'lumotlar IBM SPSS Statistics dasturi yordamida qayta ishlanib, tavsifiy statistika ( $M \pm SD$ ), mustaqil tanlanmalar uchun Student t-testi, Pearson korrelyatsiya tahlili hamda Cronbach Alpha koefitsienti yordamida metodikalarning ichki ishonchligi baholandi. Statistik ahamiyatlilik mezoni sifatida  $p \leq 0,05$  qabul qilindi.

1-jadval: Yoshlarning harbiy xizmatga bo'lgan munosabati ko'rsatkichlarining qiyosiy tahlili (n=200)

Ko'rsatkichlar	Boshlang'ich guruh (n=100) $M \pm SD$	Tayyorgarlikdan o'tgan guruh (n=100) $M \pm SD$	t	p
Harbiy motivatsiya	3,58±0,49	4,41±0,46	-6,74	0,000
Vatanparvarlik qadriyatlari	3,82±0,44	4,53±0,39	-6,15	0,000
Psixologik tayyorgarlik	3,46±0,52	4,29±0,48	-6,48	0,000
Fuqarolik mas'uliyati	3,79±0,45	4,47±0,42	-5,89	0,001
Stressga chidamlilik	3,55±0,51	4,21±0,47	-5,67	0,001
Harbiy xizmatga ijobiy munosabat	3,63±0,47	4,58±0,41	-7,13	0,000

Izoh: \* $p \leq 0,05$ ; \*\* $p \leq 0,01$  – statistik jihatdan ishonchli farqlarni bildiradi.

Jadval natijalari shuni ko'rsatdiki, chaqiriqqacha harbiy tayyorgarlik mashg'ulotlarida muntazam ishtirok etgan respondentlarda harbiy motivatsiya, Vatanga sadoqat, psixologik tayyorgarlik, stressga chidamlilik hamda harbiy xizmatga ijobiy munosabat ko'rsatkichlari boshlang'ich guruhga nisbatan sezilarli darajada yuqori bo'ldi.

Pearson korrelyatsion tahlili natijalariga ko'ra, harbiy motivatsiya bilan harbiy xizmatga ijobiy munosabat o'rtasida  $r=0,76$  ( $p < 0,01$ ), psixologik tayyorgarlik bilan stressga chidamlilik o'rtasida  $r=0,69$  ( $p < 0,01$ ), fuqarolik mas'uliyati bilan vatanparvarlik qadriyatlari o'rtasida esa  $r=0,72$  ( $p < 0,01$ ) darajasida kuchli musbat bog'liqlik aniqlandi.

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, yoshlarning harbiy xizmatga nisbatan ijobiy munosabati alohida bir omil emas, balki motivatsion, emotsional, kognitiv va ijtimoiy-psixologik komponentlarning o'zaro uyg'un rivojlanishi natijasida shakllanadi. Shu bois chaqiriqqacha harbiy ta'lim tizimida psixologik treninglar, motivatsion dasturlar, vatanparvarlikka yo'naltirilgan interfaol mashg'ulotlar hamda stressni boshqarish texnologiyalarini joriy etish yoshlarni harbiy xizmatga sifatli tayyorlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot yoshlarning harbiy xizmatga bo'lgan munosabatini shakllantirishning o'ziga xos psixologik xususiyatlarini nazariy va empirik jihatdan tahlil qilishga bag'ishlandi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, harbiy xizmatga nisbatan ijobiy munosabat shaxsning motivatsion, kognitiv, emotsional va xulq-atvor komponentlarining o'zaro uyg'un rivojlanishi natijasida shakllanadigan murakkab psixologik jarayondir. Mazkur jarayon oila, ta'lim muassasalari, chaqiriqqacha harbiy ta'lim tizimi, mahalla hamda ijtimoiy muhitning izchil ta'siri ostida rivojlanadi.

Nazariy tahlillar harbiy xizmatga bo'lgan munosabatning shakllanishida ichki motivatsiya, fuqarolik mas'uliyati, Vatanga sadoqat, milliy qadriyatlarni anglash va psixologik tayyorgarlik hal qiluvchi omillar ekanligini tasdiqladi. Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi faqat harbiy bilimlarni o'rgatish bilan cheklanmay, balki yoshlarda ijtimoiy mas'uliyat, vatanparvarlik, intizom, qat'iyat va emotsional barqarorlik kabi shaxsiy sifatlarni rivojlantirishni ham nazarda tutadi.

Empirik tadqiqot natijalariga ko'ra, chaqiriqqacha harbiy tayyorgarlik mashg'ulotlarida muntazam qatnashgan respondentlarda harbiy motivatsiya, Vatanga sadoqat, fuqarolik mas'uliyati, psixologik tayyorgarlik va stressga chidamlilik ko'rsatkichlari nazorat guruhiga nisbatan statistik jihatdan ishonchli darajada yuqori ekanligi aniqlandi. Pearson korrelyatsion tahlili natijalari harbiy motivatsiya bilan harbiy xizmatga ijobiy munosabat ( $r=0,76$ ), fuqarolik mas'uliyati bilan vatanparvarlik qadriyatlari ( $r=0,72$ ) hamda psixologik tayyorgarlik bilan stressga chidamlilik ( $r=0,69$ ) o'rtasida kuchli musbat bog'liqlik mavjudligini ko'rsatdi. Ushbu natijalar yoshlarning harbiy xizmatga bo'lgan munosabatini rivojlantirishda motivatsion va psixologik omillar ustuvor ahamiyat kasb etishini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi.

Tadqiqot davomida yoshlarning harbiy xizmatga bo'lgan ijobiy munosabatini shakllantiruvchi asosiy psixologik mexanizmlar sifatida ichki motivatsiya, fuqarolik identifikatsiyasi, Vatanga sadoqat, psixologik rezilientlik, stressga chidamlilik, kommunikativ kompetentlik, liderlik salohiyati, irodaviy sifatlarni va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimi ajratib ko'rsatildi. Mazkur omillarning o'zaro uyg'un rivojlanishi harbiy faoliyatga psixologik tayyorgarlikni mustahkamlaydi hamda yoshlarning harbiy xizmatga ongli va mas'uliyatli munosabatini shakllantiradi.

Tadqiqot natijalariga asosan, quyidagi ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

- chaqiriqqacha harbiy ta'lim dasturlariga motivatsion psixologiya, harbiy psixologiya va stressni boshqarish bo'yicha maxsus treninglarni kiritish;
- umumta'lim maktablari va oliy ta'lim muassasalarida harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini interfaol pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish;
- yoshlarning harbiy xizmatga bo'lgan motivatsiyasini muntazam psixologik diagnostika qilish va individual rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish;
- ota-onalar, pedagoglar va harbiy mutaxassislar hamkorligini kuchaytirish orqali harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining uzluksiz modelini yaratish;
- harbiy qismlar, oliy harbiy ta'lim muassasalari va ta'lim tashkilotlari o'rtasidagi amaliy hamkorlikni kengaytirish, uchrashuvlar, seminarlar va dala-o'quv mashg'ulotlarini tizimli ravishda tashkil etish;
- yoshlarda media savodxonlik va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish orqali harbiy xizmatga oid noto'g'ri axborotlarning salbiy ta'sirini kamaytirish.

Mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda yoshlarning harbiy xizmatga bo'lgan munosabati motivatsion, emotsional, kognitiv va ijtimoiy komponentlarning integratsiyalashgan tizimi sifatida o'rganildi hamda ushbu tizimni rivojlantirishning psixologik-pedagogik mexanizmlari ilmiy asoslandi. Taklif etilgan model yoshlarning harbiy xizmatga tayyorgarligini oshirish, harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini takomillashtirish va davlat mudofaa salohiyatini mustahkamlashga xizmat qiluvchi ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Kelgusidagi ilmiy izlanishlarda yoshlarning harbiy xizmatga bo'lgan munosabatiga raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt, ijtimoiy tarmoqlar, oilaviy tarbiya uslublari va madaniy omillarning ta'sirini strukturaviy modellashtirish (SEM), regressiya tahlili hamda longitudinal tadqiqotlar asosida chuqur o'rganish maqsadga muvofiqdir. Bunday tadqiqotlar harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining zamonaviy ilmiy modelini yanada takomillashtirish imkonini beradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoni. "O'zbekiston - 2030" strategiyasi to'g'risida. - Toshkent, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida. - Toshkent, 2022.
3. O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni. O'RQ-406. - Toshkent, 2016.
4. O'zbekiston Respublikasining "Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida"gi Qonuni. - Toshkent: O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, amaldagi nashr.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga oid amaldagi qaror va nizomlari. - Toshkent.
6. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. - Toshkent: O'zbekiston, 2021. - 464 b.
7. G'oziyev E.G'. Umumiy psixologiya. - Toshkent: O'qituvchi, 2020. - 540 b.
8. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya. - Toshkent: Fan va texnologiya, 2021. - 312 b.
9. Shoumarov G'.B. Shaxs psixologiyasi. - Toshkent: Sharq, 2019. - 328 b.
10. Qodirov B.R. Kasbiy psixologiya. - Toshkent: Tafakkur, 2020. - 286 b.
11. Nishonova Z.T., Alimova G.K. Yosh va pedagogik psixologiya. - Toshkent: Universitet, 2021. - 336 b.
12. Vygotskiy L.S. Psixologiya razvitiya cheloveka. - Moskva: Smysl, 2005. - 1136 s.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №7(1)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.